
Marraga yetgan mardlardan munosib rag'bat

Rishton tumanida paxta yig'im-terimi kun sayin jadal tus olmoqda. Mahalliy hokimlik va klaster korxonasi rahbariyati tomonidan mavsumga yuqori saviyada tadorik ko'rilgani, terimchilar uchun dalada barcha maishiy shart-sharoitlarning yaratib berilgani ish unumining oshishida asosiy omil bo'layotir.

E'tiborlisi, tumanda paxta xomashyosi tayyorlash shartnomaviy rejasini bajargan fermerlar safi ortib bormoqda. Bugun M. Topvoldiev MMTP hududidagi "Oltin Vodiy" nomli fermer xo'jaligi marrani zabt etib, o'z ishchi xodimlari va terimchilar uchun bayram dasturxonini yozdi.

Marraga yetgan mard fermer xo'jaligi rahbari o'z ishchi xodimlarini munosib rag'batlantirdi. Ishchi xodimlariga kir yuvish mashinasi va suv isitgich moslamasi (Ariston) sovg'a qilindi. Bundan tashqari, fermer xo'jaligining har bir a'zosiga 2 ming donadan pishgan g'isht, 1 tonnadan sement ham tarqatildi. Ushbu fermer xo'jaligi rahbari Ahror Matvalievning himmati barcha uchun namuna bo'lishiga ishonamiz.

- "Oltin vodiy" fermer xo'jaligi bu yil 33,2 gektar yerga paxta ekib, birinchi terimning o'zidayoq 130 tonnadan ortiq paxta topshirdi va rejani ortig'i bilan bajarishga muvaffaq bo'ldi, - deydi "M. Topvoldiev" MMTP raisi A. Niyozov. - Hali dalada hosil mo'l. Fermerlarimiz joriy yilda paxtadan mo'maygina daromad topishni rejalashtirishmoqda.

Endi tumanimizdagi fermer xo'jaliklarida har kuni kuy-qo'shiq sadolari yangraydi: rejani bajargan fermer borki, "To'ylar muborak"ka raqs tushadi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-10-05 14:28:45